

---

## Navbatdagi sayyor qabul 2-sektor hududida o'tkazildi.

Bugun Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov tomonidan "Beruniy" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi 20-maktabda jismoniy va yuridik shaxslar uchun sayyor qabul o'tkazildi. Unda hokim o'rinbosarlari, 2-sektor rahbari, shahar prokurori Dilmurodjon Qobulov, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi Farg'ona shahar bo'limi mudiri G'ayratjon Pattayevlar ham ishtirok etishdi.

Qabul davomida 52 nafar jismoniy va yuridik shaxslardan tushgan 60 ta murojaatlar mas'ul rahbarlar ishtirokida o'rganildi. Yigirmadan ortiq murojaatlar ijobiy hal qilindi.

Kelib tushgan murojaatlar bo'yicha belgilangan tartibda o'rganib chiqish va natijasi bo'yicha mualliflarga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, korxonalar, tashkilot va bo'limlarga tegishli topshiriqlar berildi.

Shuningdek, fuqarolardan sog'lig'ini tiklash, uy-joy ajratish, moddiy yordam olish singari 30 ga yaqin murojaatlarni o'rganish uchun Ishchi guruhlariga ko'rsatmalar berildi.

2022-06-22 14:48:43